

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

**O‘ZBEKISTONDA TEATR VA MUSIQA SAN’ATINI YANADA RIVOJLANTIRISHNI
QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RAG‘BATLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

**O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va
rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**

Teatr va musiqa san’ati yutuqlarini mustahkamlash va yanada yuksaltirish, madaniyatning ushbu sohasi ijodiy xodimlari mehnatini rag‘batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash maqsadida, shuningdek respublika teatr va musiqa jamoatchiligining istaklarini e’tiborga olib:

1. 1995-yil 1-noyabrdan boshlab teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlari, teatr va musiqa san’ati ijodiy kadrlarini tayyorlovchi o‘quv muassasalarining professor-o‘qituvchilari va konsertmeysterlari uchun:

uzoq muddat xizmat qilganligi uchun lavozim maoshiga nisbatan har oylik taqdirlash puli miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

pensiyaga chiqishda — amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqilgan asosiy pensiyaga respublikada belgilangan pensiyani hisoblashning bazaviy miqdoriga nisbatan har oylik ustama miqdorlari 2-ilovaga muvofiq belgilansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi bir oy muddatda:

respublikada teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishning istiqbol dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik opera va balet katta teatri huzurida 15 kishidan iborat stajorlar guruhi tashkil etsin;

xorijiy investorlarni jalb etgan holda teatr va musiqa san’ati uchun maxsus buyumlar ishlab chiqarish bo‘yicha korxonalar tashkil etish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

3. Musiqa san’ati sohasida kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Toshkent shahrida konservatoriyaning yangi kompleksini qurish maqsadga muvofiq deb hisoblansin. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi “O‘zistiqlabstat” davlat qo‘mitasi, Moliya vazirligi va “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda ushbu masala bo‘yicha Hukumat qarori loyihasini tayyorlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda teatr-konsert tashkilotlari va ko‘rsatib o‘tilgan o‘quv muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun 1996-1997-yillarda budjetdan mablag‘ ajratishni nazarda tutsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mazkur Farmonning joriy etilishiga aloqador xarajatlarni mablag‘ bilan ta’minlash manbalarini aniqlasin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 20 kun muddatda amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarga qo‘shimchalar to‘g‘risida takliflar tayyorlasin.

7. Vazirlar Mahkamasi mazkur Farmonni bajarish yuzasidan ikki hafta muddatda qaror qabul qilsin.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1995-yil 20-oktabr,
PF-1280-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi
PF-1280-sonli Farmoniga
1-ILOVA

**Teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlari, teatr va musiqa san'ati bo'yicha
ijodiy xodimlar tayyorlovchi o'quv muassasalari professor-o'qituvchilariga va
konsertmeystyerlariga uzoq muddat xizmat qilganligi uchun har oylik taqdirlash puli**

MIQDORLARI

Xizmat muddatlari	Lavozim maoshiga nisbatan foizlardagi har oylik taqdirlash puli miqdorlari
I. Yoshidan qat'i nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan teatr-konsert tashkilotlari artistlari	
1 yildan 3 yilgacha	10
3 yildan 5 yilgacha	20
5 yildan 10 yilgacha	40
10 yildan 15 yilgacha	45
15 yildan ortiq	50
II. Teatr-konsert tashkilotlarining artistlari va badiiy xodimlari	
3 yildan 5 yilgacha	10
5 yildan 10 yilgacha	20
10 yildan 15 yilgacha	35
15 yildan 20 yilgacha	40
20 yildan 25 yilgacha	45
25 yildan ortiq	50
III. O'quv muassasalarining professor-o'qituvchilari va konsertmeystyerlari	
3 yildan 5 yilgacha	10
5 yildan 10 yilgacha	15
10 yildan 15 yilgacha	20
15 yildan 20 yilgacha	30
20 yildan 25 yilgacha	40
25 yildan ortiq	50

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi
PF-1280-sonli Farmoniga
2-ILOVA

**Teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlari, teatr va musiqa san'ati ijodiy
xodimlari tayyorlovchi o'quv muassasalari professor-o'qituvchilarining va
konsertmeystyerlarining asosiy pensiyalariga har oylik ustamalar**

MIQDORLARI

Guruhlar	Pensiyani hisoblashning bazaviy miqdoriga nisbatan foizlardagi har oylik ustama miqdori
1. Yoshidan qat'i nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan artistlar	75
2. Teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlari, o'quv muassasalarining professor-o'qituvchilari va konsertmeystyerlari	50